XALQ DEPUTATLARI BO‘STON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-013-1-19-K/24 Bo‘ston tumani

Bo‘ston tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/01-04-15-/1907-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Bo‘ston tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari 53 483 000,0 ming so‘m va xarajatlari esa 99 254 296,0 ming so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 45 771 296 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Bo‘ston tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 423 000,0 ming so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Bo‘ston tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 1 163 826 ming so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan

vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 4-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Gaziyev, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (R.Ashuroxunov), tuman soliq inspeksiyasi (V.Shamsutdinov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (Sh.Mamarizayev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Gaziyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

NOSIROVA
SANABARXON
ABDINABIYEVNA

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-013-1-19-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Bo‘ston tumani mahalliy budjeti daromadlarining prognozi

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
1	Aylanmadan olinadigan soliq	3 220 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	31 768 000
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	783 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	4 080 000
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2 835 000
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 371 000
7	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	78 000
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 296 000
9	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	52 000
	JAMI	**53 483 000**
	Viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	45 771 296
	Hamma daromadlar	**99 254 296**

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-013-1-19-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Bo‘ston tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**99 254 296**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	*32 388 544*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*1 685 236*
2	Madaniyat bo‘limi	*2 889 940*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*3 060 919*
4	Sport bo‘limi	*5 582 354*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 881 232*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*1 426 696*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*1 622 736*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 205 970*
9	Hokimiyat	*29 662 781*
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*21 119 150*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*923 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 163 826*
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*917 936*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*142 990*
	Axborot-kutubxona markazlari	*774 946*
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	17 615 188

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-013-1-19-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun umumdavlat soliqlari va majburiy to‘lovlardan shaharlar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

foizda

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i*	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida to‘lanadigan soliq shuningdek	Foyda solig‘i	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) uchun aksiz solig‘i	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari*	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Aylanmadan soliq	Davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar	Yer uchastka-lariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari	Davlat boji **	Jarima**	Yig‘imlar**	Davlat mulkini ijaraga berishdan tushumlar	Boshqa (3450603, 3450723, 3450725, 3450950, 3450951, 3511117, 3511700, 3710303 doromad kodlari bo‘yicha) tushumlar
1	Bo‘ston tumani	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%

*Izoh: * Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno*

*** Qonunchilik hujjatlarida belgilangan ayrim davlat boji (3422103 daromad kodi bo‘yicha), jarimalar (3430103 daromad kodi bo‘yicha) va yig‘imlar (3422203 daromad kodi bo‘yicha)ning ayrim turlari tuman (shahar) mahalliy byudjetlariga ajratma qilinishi mumkin*

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-013-1-19-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun Bo‘ston tumani bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘ining bazaviy stavkasiga nisbatan xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi tomonidan belgilangan koeffisiyentlarga muvofiq qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq stavkalari

№	Hududlar nomi	Koeffisent miqdori	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)*
1	Obod MFY	0,7	33 880 000
2	G‘olib MFY	0,7	33 880 000
3	Mustaqillik 15 yilligi MFY	0,7	33 880 000
4	Ko‘xinur MFY	0,7	33 880 000
5	Yangi qishloq MFY	0,7	33 880 000
6	Yangi obod MFY	0,7	33 880 000
7	Maorif MFY	0,7	33 880 000
8	Guzar MFY	0,7	33 880 000
9	Madaniyat MFY	0,7	33 880 000
10	Do‘stlik MFY	0,7	33 880 000
11	Sarbon MFY	0,7	33 880 000
12	Yakka tol MFY	0,7	33 880 000
13	Pillakor MFY	0,7	33 880 000
14	Bo‘ston MFY	0,7	33 880 000
15	Davlatobod MFY	0,7	33 880 000
16	Sariq jo‘ga MFY	0,7	33 880 000
17	Navro‘z MFY	0,7	33 880 000
18	Gulshan MFY	0,7	33 880 000
19	Bog‘i eram MFY	0,7	33 880 000
20	Dexqonobod MFY	0,7	33 880 000
21	Nurafshon MFY	0,7	33 880 000
22	Mexnatobod MFY	0,7	33 880 000
23	Xovos MFY	0,7	33 880 000
24	Guliston MFY	0,7	33 880 000
25	Xalqobod MFY	0,7	33 880 000

**O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-sonli qarori bilan Bo‘ston tumanida yuridik shaxslar uchun qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘ining bazaviy stavkasi 1 gektar uchun 48,4 mln.so‘m miqdori belgilangan. Qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq summasi bazaviy stavkani koeffisiyentga ko‘paytirish orqali aniqlanadi.*

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-013-1-19-K/24 -son qaroriga
5-ilova

2025-yil uchun Bo‘ston tumani bo‘yicha jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘ining bazaviy stavkasiga nisbatan xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi tomonidan belgilangan koeffisiyentlarga muvofiq qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq stavkalari

№	Hududlar nomi	Koeffisent miqdori	1 kv. m uchun bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)*
1	Obod MFY	0,90	272,8
2	G‘olib MFY	0,85	257,6
3	Mustaqillik 15 yilligi MFY	0,85	257,6
4	Ko‘xinur MFY	0,85	257,6
5	Yangi qishloq MFY	0,85	257,6
6	Yangi obod MFY	0,85	257,6
7	Maorif MFY	0,85	257,6
8	Guzar MFY	0,90	272,8
9	Madaniyat MFY	0,90	272,8
10	Do‘stlik MFY	0,90	272,8
11	Sarbon MFY	0,75	227,3
12	Yakka tol MFY	0,80	242,5
13	Pillakor MFY	0,85	257,6
14	Bo‘ston MFY	0,75	227,3
15	Davlatobod MFY	0,80	242,5
16	Sariq jo‘ga MFY	0,80	242,5
17	Navro‘z MFY	0,80	242,5
18	Gulshan MFY	0,80	242,5
19	Bog‘i eram MFY	0,80	242,5
20	Dexqonobod MFY	0,80	242,5
21	Nurafshon MFY	0,80	242,5
22	Mexnatobod MFY	0,80	242,5
23	Xovos MFY	0,80	242,5
24	Guliston MFY	0,80	242,5
25	Xalqobod MFY	0,85	257,6

**O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-sonli qarori bilan Bo‘ston tumanida jismoniy shaxslar uchun qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘ining bazaviy stavkasi 1 kv.m uchun 303,1 so‘m miqdori belgilangan. Qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq summasi bazaviy stavkani koeffisiyentga ko‘paytirish orqali aniqlanadi.*